

1945 - yilgi haj ibodati va Saudiya Arabistoni va O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy nazorati o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi.

Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li

[*arslonbekovnursulton@gmail.com*](mailto:arslonbekovnursulton@gmail.com)

Qarshi davlat universiteti doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligidagi sovet dindor ulamolaridan iborat delegatsiyaning Haj amalini ado qilish uchun Saudiya Arabistoniga safari va mavjud vaziyatda ularga sovet hokimiyati yuklagan vazifalar hamda qirollik bilan yangi tashkil etilgan tashkilotning o'zaro do'stona, iliq munosabatlari va kelajakdagi aloqalarga ta'siri haqida ma'lumotlar bor.

Kalit so'zlar: arkon, haj, Makka, Madina, shayxul islom, qirol.

Qariyb 20yildan ortiq vaqt davomida islom diniga nisbatan "dahriyona" siyosat tufayli, Saudiya Arabistoni SSSR bilan diplomatik aloqalarni uzadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mintqa davlatlarida, xususan neftga boy arab davlatlari bilan savdo - iqtisodiy, harbiy - texnologik sherikchilik orqali o'z nufuzini o'stirishni o'z oldiga maqsad qilgan Sovet hukumati uchun bu albatta ulkan muammo edi.

Ikkinchi jahon urushi sababchilari Germaniya va Yaponiya taslim bo'lgach, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati rahbari muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon Moskvadan Makkaga haj qilish uchun ruxsat so'raydi. Barcha ittifoqdosh Respublikalardan vakillar diniy erkinlikni ko'rsatish va xorijdagi musulmonlarning SSSR haqidagi fikrlarini o'zgartirish uchun ushbu safarga jo'natiladi. 1945 yildagi haj ibodatiga Sobiq SSSRdan jami 22 nafar kishi ishtirok etadi. Ular muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida haj safariga jo'nashadi. [1 - 107-108 b.].

Islom dinining besh arkonidan biri bo'lmish haj har bir qudrati tegan kishi umrida 1marta qilishi lozim bo'lgan farz ibodat hisoblanib, Alloh taolo Qur'oni Karimda unga buyuradi:

“ Unda aniq alomatlar - “ Maqomi Ibrohim” bordir. Unga (Ka'baga) kirgan kishi omonda bo'lur. Yo'lga qodir odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir. Kimda - kim (buni) inkor etsa,bas, albatta, Alloh olamlardan behojatdir” (“Oli Imron” surasi 97 - oyat) [2- 56b].

1945 - yilgi muborak haj safariga muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon bilan birga xazratning o'g'li O'zbekiston qozisi Ziyovuddinxon Boboxonov, Tojikiston qozisi - Mulla Solih Boboxon, Tojikiston din ishlari kengashi vakili - Basharxon Isxoqiy, Olmaotadan - Qozog'iston qozisi Muhammad Sharif To'g'onboyev, Bayramdan - Shihobiddin Suxravardiy maqbarasi shayxi Alixo'ja Yusuf Ahmedov kabi O'rta Osiyolik hojilar birga bordilar.[3- 30-v].

Buyuk Allohning amalini bajarishdan oldin hamsafarlar 15 - oktyabrda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati joylashgan Toshkent shaxrida to'plana boshlaydilar.23 - otyabrda Toshkentning ruhiy markazi “Tillashayx” masjidida xalqdan duo olinadi. Masjidga 2000 dan ortiq kishilar hojilarga oq yo'l tilash uchun keladi.Poyezdda dastlab 3000km olis masofadagi SSSR poytaxti Moskvaga yo'lga chiqiladi.Albatta bunda siyosiy rahbariyatning talabi va boshqa bir qancha sabablar mavjud.

Moskvada ziyoratchilarni Moskva shaxri masjidlari boshlig'i Xalilrahmon Nasritdinov kutib oladi va ularga ulkan hurmat ehtirom ko'rsatiladi. Mehmonlar shu davrda qayta ta'mirlangan 1000 o'rinli Moskva bosh masjidiga tashrif buyurib, uyerda Butun RSFSR musulmonlari diniy nazorati muftiysi Abdurahmon Rasuliy bilan uchrashadilar, Rossiya muftiysining doimiy qarorgohi Ufa shahrida joylashgan.[3 - 31-v].

Moskvada ziyoratchilarga boshqa sovet yurtlaridan kelgan hamrohlar,xususan, Ufadan Shayx Abdurahmon Rasuliy, Qozondan imom Marjoniy masjidining imom-xatibi Qiyomiddin Qodiriy, Namangan viloyati diniy

nazoratining vakili Ismoil Maxdum Sattiyev, Qoraqalpog'istondan Mulla Yangiboy Abulxayr o'g'li, Xo'jand masjidi imom - xatibi Abdulmajid qozi Yusuf xoji o'g'li, Qozog'istondan Abdulboriy Abdussobir o'g'li va Ali Muhammad Badriddin o'g'li kabilar qo'shildilar. [4-347-348b].

Moskvada Eshon Boboxon va ziyoratchilar SSSR XKS huzuridagi din ishlari kengashi rahbariyati va I .V.Polyanskiy bilan uchrashib, tanishdilar. [3 - 33v].

Moskvadan ziyoratchilar to'g'ri Ozarbayjon poytaxti Bokuga uchdilar. Uyerda yana bir guruh musulmonlar, shayxul-islom Alizoda va Ozarbayjon qozisi Abdurayim Oxunov boshchiligida safarga qo'shildilar. Shu bilan umumiy Hajga otlangan Sovet musulmonlari soni 22taga yetdi.

Bokudan ziyoratchilar samolyotda Eron poytaxti Tehronga uchdilar. Bu diniy nazorat xodimlarining SSSR dan tashqaridagi dastlabki safari edi. Ularni sovet elchixonasi xodimlari va Eron shayx -ul islomi Maloiriy kutib oldilar. Ertasiga mehmonxonaga bir guruh xorijlik jurnalistlar keldilar. Ular quyidagi savollarni berdilar: 1) musulmonlarga diniy erkinliklar berilganmi; 2) qadimiy qadamjolar, masjid-u-madrasalarga sovet hukumati e'tibor beradimi.

Muftiy Eshon Boboxon xazratlari barcha savollarga salmoqli va aniq faktlar bilan javob qaytaradi. Samarqand va Buxoroda sovetlar davrida qadimiy inshootlar ta'miri uchun pul ajratilib, amaliy ishlar qilingani va diniy erkinliklar tufayli ular hajga kelgani aytiladi. [3- 32-v].

Tehrondan Qohiraga va Jiddaga uchiladi. Saudiya Arabistonida ziyoratchilar qirol Abdul Aziz ibn Saud bilan uchrashishlari ulkan tarixiy voqea bo'ldi. Uchrashuv chog'ida qirol Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonga shu kundan sovet mamlakatidan keluvchi hojilar uchun Saudiya eshiklari ochiq ekanligini va hojilarga barcha sharoitlar yaratib berilishini va'da beradi. [4-356b].

Xulosa.

Albatta ushbu haj safaridan so'ng musulmon mamlakatlari bilan SSSR munosabatlarida iliqlashuv va o'zaro ishonchli aloqalar shakllana boshladi. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari safarda Misr, Jordaniya, Livan, Jazoir kabi

musulmon yurtlardan kelgan vakillar bilan tanishib dunyo nigohida sovet davlatining barcha xalqlarga tenglik shiori haqiqatligini isbotladilar. Albatta sovet hukumatining 1945 yilgi hajdan ko'zlagan eng katta diplomatik maqsadi shu edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonxo'jayev A. Dinimiz fidoyilari. - Toshkent: Tafakkur, 2021.
2. Mansur Abdulaziz "Qur'oni karim" ma'nolari tarjimasi, Toshkent, TIU, 2004.
3. O'z MDA 2456 - fond 60 - ish .
4. Boboxonov. Sh.Z. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon, Toshkent: "O'zbekiston", 2001.